

# ЎТМИШГА НАЗАР

5 ЖИЛД, 9 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 5, НОМЕР 9

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 5, ISSUE 9



ТОШКЕНТ-2022

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Раҳбар Ҳамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобоҷонова Дијором Бобоҷонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Аширов Адҳам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзРФА Тарих институти

**Аззамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзРФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети

**Ульяева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент ким - технология институти

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Гоффоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қарши мұхандислик-иқтисодиёт  
институти

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Халикова Раҳбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боҳодир Жӯраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Қарши давлат университети

**Махкамова Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент аҳборот технологиялари  
университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозогистон дипломатия академияси

**Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давлаталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмайлова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Дөгистон мустақил университети

**Иноятова Диларрам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Ўзбекистон Миллий университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
Тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Ўзбекистон жаҳон  
тиллари университети

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

**Контакт редакций журналов.** [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of** [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

## 1. Тамара Красовицкая

АНГЕЛЫ КУЛЬТУРНОЙ ПОЛИТИКИ: «НЕМНОГИЕ НАУЧИЛИСЬ СМОТРЕТЬ В РАСКАЛЕННУЮ ТОПКУ» (МАЛО ИЗУЧЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ЭТНОКУЛЬТУРНОМУ МНОГООБРАЗИЮ РОССИИ).....4

## 2. Алишер Сабиров

ГЕРМАНИЯ ТАРИХ ФАНИДА ОҒЗАКИ ТАРИХ (ORAL HISTORY)  
ТАДҚИҚОТЛАР ТАЖРИБАСИ.....29

## 3. Dilafro‘z Qurbonova, Zilola Shodmonxo‘jayeva, Nodira Xasanova

О‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYIDAGI ZARDUSHTIYLIKKA  
OID MODDIY ASHYOLAR TARIXI.....40

## 4. Laziz Baxtiyorov

AMIR TEMUR BOG‘LARINING QURILISH TARIXI.....45

## 5. Сарвар Ботиров

БУЮК БРИТАНИЯДА МАРКАЗИЙ ОСИЁГА ОИД ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ  
ИЛМИЙ НАШРЛАРДА ЁРИТИЛИШИ.....49

## 6. Алишер Дониёров, Алишер Насимов

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ҲУДУДЛАРИДА ЭТНОГРАФИК  
ТАДҚИҚОТЛАР ТАРИХШУНОСЛИГИ (1930-1950 ЙИЛЛАР).....58

## 7. Zebiniso Zaynabiddinova

АКАДЕМИК I.YU.KRACHKOVSKIY IJODIDA O’RTA ASRLAR ARAB ADABIYOTI.....68

## 8. Munisa Muxamedova, Latofat Jabbarova, Oyto‘raxon Yo‘ldoshxo‘jayeva

FARFOR VA FAYANS KOLLEKSIYALARINING EKSPERTIZASI,  
ATRIBUSIYASI VA MUZEYLASHTIRILISHI.....72

## 9. Эркин Раджапов

ЎЗБЕК МИЛЛИЙ ҲАРБИЙ КАДРЛАР ЭЛИТАСИННИНГ ҚАТАФОН ЭТИЛИШИ.....80

## 10. Комил Раҳимов

ҚАДИМГИ МАРФИЁННАНИНГ БРОНЗА ДАВРИ ОШХОНА ЎЧОҚЛАРИНИНГ  
ҮРГАНИЛИШИ ВА УЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ МУАММОЛАР.....89

## 11. Холмурод Сориев

АМИР ТЕМУР ЖАНГ САНЪАТИДА ҲАРБИЙ ҲИЙЛАЛАР ТАРИХИГА  
ОИД БАЪЗИ МАЪЛУМОТЛАР.....96

## 12. Наргиза Хасанова, Шахризода Исматова

МИЛЛИЙ МИНИАТЮРА ИХТИСОСЛИГИДА ТАъЛИМ АНЬАНАЛАРИ  
(Камолиддин Беҳзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти мисолида).....102

JOURNAL OF

# LOOK TO THE PAST

ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ISSN: 2181-9599  
www.tadqiqot.uz

Dilafro'z Qurbanova,

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti

ilmiy ishlar va innovasiyalar bo'yicha

prorektor, tarix fanlari doktori

dilkur\_1980@mail.ru,

Zilola Shodmonxo'jayeva,

Nodira Xasanova

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy

rassomlik va dizayn instituti magistranti

## O`ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYIDAGI ZARDUSHTIYLIKKA OID MODDIY ASHYOLAR TARIXI

**For citation:** Dilzoda Alimkulova, Zilola Shodmonkhojaeva, Nodira Khasanova. HISTORY OF ZOROASTRIAN ARTIFACTS OF THE STATE MUSEUM OF THE HISTORY OF UZBEKISTAN. Look to the past. 2022, vol. 5, issue 9, pp.40-44



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7026866>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O`zbekiston tarixi davlat muzeyi kolleksiyasidan joy olgan ossuariylar haqida so'z boradi. Ushbu tarixiy ob'yekt tarixi, uning asrlar davomida badiiy-estetik jihatlarining o'zgarishi ko'rib chiqiladi hamda san'atshunoslik ilmi nuqtai nazaridan ta'riflanadi. O'rta Osiyo xalqlarida Ossuariyga solib ko'mish odati mil. av. 1-ming yillikning 1-yarmida shakllanib, mil. 8-a. gacha (islomiy dafn rusumlari qabul qilinguncha) davom etgan. Ossuariylar eng ko'hna udumlarni o'rganishga, ajdodlar amaliy san'atining nozik qirralarini aniqlashga ko'maklashadi.

**Kalit so'zlari:** ostodon, zardushtiylik, daxma, kript, naus, eksponat, relyef, kompozitsiya.

**Дилафруз Курбанова,**

Проректор по исследованиям и инновациям

Национального института искусства и дизайна

имени Камолиддина Бехзода,

доктор исторических наук

dilkur\_1980@mail.ru

**Зилола Шодмонходжаева,**

**Нодира Хасанова**

магистры Национального института искусства

и дизайна имени Камолиддина Бехзода

## ИСТОРИЯ ЗОРОАСТРИЙСКИХ АРТЕФАКТОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются оссуарии из коллекции Государственного музея истории Узбекистана. История этого исторического объекта, изменения его художественно-эстетического аспекта на протяжении веков рассматриваются и описываются с точки зрения искусствоведения. У народов Средней Азии обычай погребения в оссуариях (костницах) сложился в первой половине I тыс. до н.э. и продолжался до VIII в. до н.э. (пока не были приняты исламские погребальные обычаи). Оссуарии помогают изучить древнейшие обычаи, выявить тонкие стороны практического искусства предков.

**Ключевые слова:** оссуарий, зороастранизм, дахма, крипт, наус, экспонат, рельеф, композиция.

**Dilafruz Kurbanova,**  
Vice-Rector for Research and Innovation  
National Institute of Art and Design  
named after Kamoliddin Behzod,  
Doctor of Historical Sciences  
dilkur\_1980@mail.ru

**Zilola Shodmonkhojaeva,**  
**Nodira Khasanova**  
masters of the National Institute of Arts and  
Design named after Kamoliddin Behzod

## HISTORY OF ZOROASTRIAN ARTIFACTS OF THE STATE MUSEUM OF THE HISTORY OF UZBEKISTAN

### ABSTRACT

This article deals with the ossuaries from the collection of the State Museum of History of Uzbekistan. The history of this historical object, the changes in its artistic and aesthetic aspects over the centuries are considered and described from the point of view of art criticism. Among the peoples of Central Asia, the custom of burial in a crypt developed in the first half of the 1st millennium BC and continued until the 8th century BC (until Islamic burial customs were adopted). Ossuaries help to study ancient customs, reveal the subtle aspects of the practical art of ancestors.

**Index Terms:** ossuary Zoroastrianism, hut, nau, exhibit, relief, composition.

### 1. Dolzarbligi:

“Tarix fan va san’at o’rtasidagi ko’prikdir.” (N.Reymars) Ushbu ikki jabhaning munosabati natijasida qanchadan qancha jumboqli savollarga javob topiladi. Tarix bu shunchaki davrlar va zamonning almashunuvi emas balki unda o’tgan insonlar portretining cheksiz galereyasidir. Undan qolgan har bir narsa biz uchun qandaydir ma’noda qadrli. Vaqt, zamon, insonlar haqida so’zlaydigan tarixiy predmetlar go’yo jonsiz gerbariy kabi o’z davrini nomoyon etadi. Yurtimiz muzeylari ekspozitsiyalaridan joy olgan har qaysi tarixiy obyektni olmaylik u tarixiy xotira kabi biz uchun muhim ahamiyatga ega.

### 2. Metodlar:

Maqola tarix faniga xos bo’lgan tarixiylik, tizimlilik, xolislik hamda qiyosiy tahlil tamoyillari asosida yoritilgan bo’lib, unda O’zbekiston tarixi davlat muzeyi kolleksiyasidan joy olgan ossuariylar haqida so’z boradi. Ushbu tarixiy obyektning tarixi, uning asrlar davomida badiiy-estetik jihatlarining o’zgarishi ko’rib chiqiladi hamda san’atshunoslik ilmi nuqtai nazaridan ta’riflanadi.

### 3. Tadqiqot natijalari:

Ilk paydo bo’lgan inson tasavvurlari, uning tabiat, zamon haqidagi o’y –hayollari, qo’rquvlari dastlabki diniy qarashlarni shakllantirdi. Diniy dunyoqarashning bir bo’lagi sifatida dafn marosimi necha ming yillar davomida turlicha ko’rinishda shakllanib keldi. Xususan, yurtimiz tarixi bilan

bog'liq bo'lgan zardushtiylik dini ta'limotida olov, yer, suv hamda havoning muqaddas ekanligi, ularda o'ziga xos dafn jarayonini shakllantirdi. "Zardushtiylik e'tiqodi murdalarni yerga ko'mish, ularni cho'ktirish yoki yoqishni ta'qilaydi, shuning uchun bu dinda marhumni darhol maxsus "ked" deb nomlanuvchi uyga olib boriladi. Keyin uni aholi yashaydigan joydan uzoqda joylashgan balandlikka - daxmaga ko'chirish an'anasi mavjud. Jasad bir yil davomida o'lik chirib, qushlar tomonidan talanib, yoki bu maqsadda maxsus saqlanadigan itlar tomonidan kemirguncha o'sha yerda qoladi. Shamolda uchib ketgan, quyoshda quritilgan suyaklar allaqachon toza deb hisoblangan, bundan tashqari, marhumning ruhining zarralarini o'zida mujassam etgan, ular to'planib, maxsus binoga - nausga (cript) ossuariylar joylashtirilgan. Bu xonalar ko'pincha "sukunat minoralari" deb atalgan"[1]. O'zining uzoq shakllanish jarayoniga ega mazkur diniy marosim o'zida nafaqat diniy balki, amaliy hamda me'moriy elementlarni ham yuzaga keltirgan. Ossuariylar nafaqat O'rta Osiyo tarixiga tegishli, balki Markaziy Amerika, Afrika, Avstraliya hududlari tarixida ham ossuariyning turli ko'rinishlari uchraydi.

Yurtimiz tarixiga oid qimmatli manbalarni o'zida jamlagan O'zbekiston tarixi davlat muzeyi kolleksiyasida mazkur tarixiy obyektning noyob namunalari mavjud. Muzey ekspozitsiyasidagi ossuariylar milodning boshi hamda ilk o'rta asrlarga tegishli. Mazkur ossuariylarning eng qadimiy namunasi mil.avv. I asr – milodning I asriga tegishli Qoraqalpog'istondagi Qo'yqirilgan qal'a arxeologik yodgorligidan topilgan. Mazkur ossuariy o'zining plastik yechimi bilan qolgan namunalardan farqlanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, "Qadimgi Xorazmda odam va hayvonlar tasvirli ichi bo'sh sopol ossuariylarni yasash xos edi"[2]. Ularning "haykalli idishlar" deb ataladigan eng qadimgi namunalarini miloddan avvalgi IV-III asrlarga to'g'ri keladi. Ushbu turdag'i ossuariylardan ikkitasi eng mashhur bo'lib, bular ko'ylak yoki kaftan kiygan tik turgan ayol haykali va o'rindiqda o'tirgan erkak haykalchasiidir. Shu o'rinda biz o'rganayotgan namuna o'zining kompozitsion yaxlitligi, ritmik mutanosibligi bilan tomoshabin e'tiborini tortadi. "Sovet arxeologlari Xorazmda marhumning haykali o'tirgan loy quti ko'rinishidagi ajoyib ossuariylarni topdilar. Bu "haykalli ossuariylar" zardushtiylik dini rivojining keyingi bosqichiga xos bo'lган ossuariy dafnlaridan keskin farq qiladi. Yu.A.Rappoport O'rta Osiyo va Eron ossuariylari o'rtasidagi farqni ko'rsatib, bu dafn marosimi qaysi markazda shakllanganligi haqida taxminni ilgari surdi"[3].

Noodatiy badiiy yechimga ega haykal tag qismida jimjimador aylanma naqshni hisobga olmaganda, ostodon bezaklardan holi. Ayol tanasining xarakterli jihatlariga e'tibor qaratilgan bo'lib, haykalning yuz qiyofasi o'ziga etnik, arxaik jihatlarni mujassamlashtirgan. O'zaro ulanib bo'rtib chiqqan qosh, kichik va bir biriga yaqin joylashgan ko'zlar, nozik qulqlarda zirak elementlarining mavjudligi haykalning ayol kishi ekanligini yanada ta'kidlaydi. Usta haykalning pastki oyoq qismini ostadondan bo'rtib ishlagan. Qo'l qismi elementlari saqlanib qolmagan. Muzeyning ushbu noyob eskponati orqali san'at tarixiga oid bilimlarimiz sayqallanib, o'zining amaliyotdagi natijasini beradi.

"O'lgan insonni dafn etishda ossuariylardan foydalanish o'rta asrlarga qadar Xorazm, So'g'd va Yettisuvda keng tarqalgan"[4]. Ular o'rta asrlarga qadar shakllangan madaniy simbiozlarni o'ziga mujassamlashtirdi. Ma'lumotlarga ko'ra, "V-VIII asrlarda O'rta Osiyoda ostodonlar keng tarqalgan bo'lib, ba'zan ular dafn inshootlari shaklini takrorlagan, rel'eclar bilan bezatilgan. So'nggi Xorazm ossuariylarida ko'plab rangli rasmlar va yozuvlar mavjud bo'lib, bunday ossuariylarni "tapankuk" deb ataganlar"[5].

Mazkur dafn jarayoni asrlar davomida o'z o'rnini yoqotmay, "o'lgan insonni dafn etishda ossuariylardan foydalanish o'rta asrlarga qadar Xorazm, So'g'd va Yettisuvda keng tarqalgan"[6]. Ular o'rta asrlarga qadar shakllangan madaniy simbiozlarni o'ziga mujassamlashtirdi. Ma'lumotlarga ko'ra, "V-VIII asrlarda O'rta Osiyoda ostodonlar keng tarqalgan bo'lib, ba'zan ular dafn inshootlari shaklini takrorlagan, releflar bilan bezatilgan. So'nggi Xorazm ossuariylarida ko'plab rangli rasmlar va yozuvlar mavjud bo'lib, bunday ossuariylarni "tapankuk" deb ataganlar"[7].



Muzey kolleksiyasining navbatdagi namunasi Toshekent viloyati To'YTEPA hududidagi Beshkapa arxeologik hududidan topilgan ostadonlar VI-VII asrlarga tegishli. "Taxminan, milodiy IV-V asrlar boshlarida ossuariylar (asosan quti tipi) So'g'd hududida, so'ogra Choch va Yettisuvda paydo bo'lgan"<sup>[8]</sup> degan ma'lumotlarga asoslanamiz. Mazkur ostadonda yuqorida tasdiqlaganimizdek, badiiy bezak, relyeflar mavjud. Ovalsimon shakl ostadonning ko'chmanchi aholi estetikasida ekanligidan dalolat beradi. Ostadon qopqog'i so'g'd namunalari kabi antropomorf tasvir bilan nihoyalangan, qopqoqning yuza qismi esa bir biriga mutanosib bo'lgan arkadalar bilan bezalgan. Qutining asos qismiga geometrik tasvirlar tirnab ishlangan. Ossuariy qopqog'i hamda asosining chegara qismida bargni eslatuvchi ulama bo'rtma tasvirlar o'zaro takrorlanadi. Mazkur ostadonning e'tibor tortadigan qismi qopqog'ini nihoyalovchi antropomorf tasvirdir. Hajman kichik ammo xarakterli ishlangan erkak bosh qismi insonga xos sokinlik kayfiyatini beradi.

Ba'zida ostadonlar ko'p figurali syujetlar bilan ham bezatilgan. Ularda diniy ramzlar, ibodatlar, qurbanlik sahnalari hamda dafn marosimlari tasvirlangan. Muzey ekspozitsiyasining navbatdagi namunalari VI-VII asrga oid Toshkent viloyati To'YTEPA hududidagi Beshkapa arxeologik punktidan hamda V-VII asrlarga tegishli Qashqadaryo viloyatidagi Sevaz arxeologik hududidan topilgan ostadonlar namunalari sanaladi. Mazkur ossuariylar oldingi eksponatlardan ko'p figurali syujetli kompozitsiyasi bilan ajralib turadi. Beshkapa hududidan topilgan namuna qopqoq qismi tirnama o'simlisimon naqshlar bilan bezatilgan, yaxshi saqlanib qolgan. Asos qismidagi sahna o'zaro bir biridan bo'rtma elementlar bilan ajratilgan. Syujet butun yuzani egallamay, u ostadonning bir fragmenti bo'lib shakllanadi, bir kompozitsiyaning takroriy ko'rinishi. Kompozitsiyani taxminan in'om etayotgan ikki erkak tasvirlangan deyish mumkin. Qashqadaryo viloyatiga tegishli namuna oldingi ossuariydan syujetning komozitsion murakkabligi jihatidan keskin farq qiladi. Eng avvalo shakl jihatdan o'troq xalq namunasi sanalgan ushbu ostadon badiiy bezaklardan holi. Ammo asos qismidagi o'zaro chegaralanmagan syujet o'zida bir necha sahnalarni birlashtiradi. Unda qurbanlik jarayoni aks etgan. Mazkur kompozitsiyadagi har bitta element mayda bezaklarga e'tibor berilgan holda ishlangan. Hatto qurbanlikka olib keligan shoxli qo'chqorning bo'yintumori yokida kiyimlardagi burmalar aniq detallashtirilgan.

#### 4.Xulosalar:

Umuman olganda, dafn marosimi kamida asrlar davomida O'rta Osiyo va unga tutash yerlarda hukmronlik qilib, nafaqat dehqonlar, balki mintaqaning ko'chmanchi aholisi orasida ham keng tarqalgan. Arablar bosqinida so'ng, O'rta Osiyoda zardushtiylik marosimlari bilan bir qatorda ossuariylarga dafn etish ham sekin astalik bilan kundalik hayotdan chiqa boshlagan. Ossuariylarning eng oxirgi namunalari mazkur hududda VIII asr o'rtalari, Yettisuvda esa IX asr bilan belgilalanadi. O'zbekiston tarixi davlat muzeyi kolleksiyasidagi ko'rib chiqilgan namunalarni chuquqrroq o'rganish hamda ular haqidagi batafsil ma'lumotni yetkazish, toplash san'atshunoslik hamda muzeyshunoslik ilmi doirasida muhim manba bo'lib xizmat qila oladi.



#### Сноски/Иқтибослар/References:

- Пугаченкова Г. А. Мианкальские оссуарии — памятники культуры Древнего Согда // Наука и общество: Сб.-М., 1984.-№ 28. – С. 79-90. (Pugachenkova G. A. Miankal ossuaries - cultural monuments of Ancient Sogd // Science and Society: Sat.-M., 1984.-№ 28. - P. 79-90.)
- Ягодин В. Памятники древнего искусства Каракалпакстана Архивная копия от 6 декабря 2004 на Wayback Machine (Yagodin V. Monuments of ancient art of Karakalpakstan Archival

- copy of December 6, 2004 at the Wayback Machine)
3. Раппопорт Ю.А. Из истории религии древнего Хорезма (оссуарии). – М., 1971. (Rappoport Yu.A. From the history of the religion of ancient Khorezm (ossuaries). - M., 1971.)
  4. Кольченко В. А. К типологии оссуариев Чуйской долины Архивная копия от 16 февраля 2015 на Wayback Machine (Kolchenko V. A. On the typology of ossuaries of the Chui Valley Archival copy of February 16, 2015 at the Wayback Machine)
  5. Советская историческая энциклопедия. – М.: Советская энциклопедия. Под ред. Е.М. Жукова. 1973-1982. (Soviet historical encyclopedia. - M.: Soviet Encyclopedia. Edited by E.M. Zhukov. 1973-1982.)
  6. Кольченко В.А. К типологии оссуариев Чуйской долины Архивная копия от 16 февраля 2015 на Wayback Machine (. Kolchenko V.A. On the ossuary typology of the Chui Valley Archived February 16, 2015 at the Wayback Machine)
  7. Советская историческая энциклопедия. - М.: Советская энциклопедия. Под ред. Е.М. Жукова. 1973-1982. (Soviet historical encyclopedia. - M.: Soviet Encyclopedia. Under the editorship of E.M. Zhukov. 1973-1982.)
  8. Иностраницев К.А. Туркестанские оссуарии и астодоны // Записки Восточного отделения Русского археологического общества. СПб., 1907. Т.17. Вып.4 (Foreigners K.A. Turkestan ossuaries and astodons // Notes of the Eastern Branch of the Russian Archaeological Society. SPb., 1907. V.17. Issue)

# ЎТМИШГА НАЗАР

5 ЖИЛД, 9 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 5, НОМЕР 9

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 5, ISSUE 9

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000